

Oripova Zilola

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Anotatsiya:

Ushbu maqolada bolalarda ko'p uchraydigan og'ir nutq nuqsoni Alaliyaning turlari, hamda uning kelib chiqishi, sabablari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, ushbu nuqsonni bartaraf etish yuzasidan logopedik-korreksiya ish metodlari hamda interaktiv metodlardan foydalanish yuzasidan batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Alaliya, motor alaliya, sensor alaliya, exolaliya, giperakuziya, koartikulyatsiya, nutqni tushunish, fonetik-fonematik buzilishlar, nutqning prosodik tomondan rivojlanmaganligi, oral praksis, bog'langan nutq, dispraksiya, lingvistik tasnif, gnozis, afferent, efferent, logoreya.

Ключевые слова: Алалия, моторная алалия, сенсорная алалия, гиперакузия, понимание речи, фонетические- фонематические расстройства, пропековые речи, связи, диспраксия, лингвистическая классификация, гнозис, афферентный, эфферентный, логорея.

Keywords: Alaliya, Motor alaliya, sensor Alaliya, Exception, Speechan Fonetics and Phonetic Weematic Disorders, Latsted Speeches, Distriktion, Gnozys, Afferent, Efferent , logoreya.

Hozirgi kunda Alaliya nutq nuqsoni ijtimoiy va pedagogik nuqtai nazardan jiddiy ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Chunki bu turdagi nutq nuqsonlari nafaqat bolalarning bilish jarayonlariga, balki ularning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida ham katta rol o'ynaydi.

Alaliya — markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishi bo'lib, u bolaning ona qornida yoki dastlabki rivojlanish bosqichida nutq shakllanishiga qadar bosh miya qobig'i nutq doirasining organik jarohatlanishi oqibatida uzluksiz rivojlanmay qolishdir.

“Alaliya” atamasi (grekcha a — yo'q, lotincha lalio — nutq) nutqning yo'qligi, nutqsizlik holati. Alaliya - bu nutqning tizimli rivojlanmaganligi yoki umuman yo'qligidir. Alaliya hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan nutq nuqsonlaridan biri hisoblanib, uning asosiy sabablari quyidagicha:

- hayotning dastlabki 2-3 yilida yoki ona qornida paydo bo'lgan payitda miya nutq zonalarining organik shikastlanishlari;
- travmatik miya shikastlanishi ;
- moddalar almashinuvining yaxshi kechmasligi;
- infeksiyon kasalliklar;
- homiladorlik davridagi turli intoksikatsiya va jarohatlanishlar;
- surunkali kasalliklar;
- ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha nomunosibligi;
- homilaning erta yoki kech tug'ilishi;
- TORCH infeksiyalar oqibatida;
- genetik faktorlar ham asosiy sabablardan bo'lishi mumkin.

Alaliya nutq nuqsoni yuzasidan bir qancha olimlar izlanishlar olib borishgan.

A.Kussmaul (1877) ta'kidlashicha, oldingi asr va bizning asrimizning boshlarigacha yashab, faoliyat ko'rsatgan shifokorlarning aksariyati nutqning yo'qligining barcha shakllarini alaliya deb nomlashadi. I. Frank alaliya, hamda mogilaliyani dislaliya darajalaridan biri deb, artikulyator

qiyinchiliklar bilan bogliq talaffuz kamchiligi deb ta'kidlaydi. 1830-yili R. Shultes alaliyani karsoqovlik alohida nutq nuqsoni sifatida ajratib ko'rsatadi. Ushbu olimlar alaliyaning belgilari deb quyidagilarni ko'rsatib o'tadilar:

agrammatizmlar;

tovushlarni buzilishi;

nutqning kech paydo bo'lishi;

bo'g'inlar tuzilishining buzilishi;

Passiv lug'at boyligi;

fonematik jarayonlarning buzilishi.

N. N. Traugott keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, oral apraksiyasi alaliyali bolalarning 10% foizida kuzatiladi. Ularda jismoniy yetishmovchilik, somatik zaifliklar ham kuzatiladi. Alaliya nutq nuqsoni maktabgacha yoshdagi bolalarning 1,5% va maktab o'quvchilarining 0,5% da uchraydi. V.A Kovshikov (1985) ishlarida alaliyaning impressiv (sensor) va ekspressiv (motor) shakllari kuzatiladi. Hozirgi kunda ham mana shu tasnifdan keng qo'llanilib kelinmoqda. Alaliyaning 2 ta shakli mavjud: sensor va motor alaliya.

Sensor alaliya (impressiv)

Sensor alaliyaning asosiy belgisi bosh miyaning chap yarim yuqori doirasining jarohatlanishi bilan bog'liq, nutq -eshituv va anlizatori ishining natijasi bog'langan nutqni tushunishidagi kamchiliklar hisoblanadi. Sensor alaliya motor alaliyaga nisbatan kam o'rganilgan. Yu. A. Florenskyaning ko'rsatishicha sensor alaliyada (sensor-akustik sindromida) akustik ta'sirlanmaslikning alohida holati va eshituv funksiyasining toliqishi mavjud. Bu eshituv reaksiyalarining turg'un emasligiga, eshituv differentsiyalarining hosil bo'lishidagi qiyinchiliklarga, eshituv analizi va sintezining sifatsizligiga olib keladi. Sensor alaliyada predmet (harakat) va uni ta'riflovchi so'z o'rtasida bog'liqlik shakllanmaydi. Bu holatni tadqiqotchilar tutashuvi akupatiya deb nomlaydilar. Sensor alaliyada eshituvning sifatsizligini tadqiqotchilar bosh miya po'stlog'i to'qimalarining jarohatlangan yoki rivojlanmagan o'choqlarining kattaligi bilan, bola miyasida tor o'choqli xarakterdagi jarohatning yo'qligi bilan tushuntiradilar. Sensor alaliyada nutqni tushunishdagi buzilishlar, eshitish pasayishi natijasida kelib chiqadigan kamchiliklardan farq qiladi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, odatda, zaif eshituvchilar idrokida turg'un va doimiy kamchilik kuzatiladi. Sensor buzilishlar esa idrokning turg'un bo'lmagan buzilishlari bilan farqlanadi.

Motor alaliya (ekspressiv)

Motor alaliya — bu markaziy xarakterdagi organik buzilishlar natijasi hisoblanib, nosog'lom nevrologik ko'rinish, nutqning rivojlanish borasida jiddiy orqada qolishga olib keladi. Motor alaliya nutqiy va nutqiy bo'lmagan belgilar majmuyini tashkil etuvchi murakkab sindrom hisoblanadi. Motor alaliyada nutqiy nuqson tarkibida nutqiy buzilishlar yetakchi o'rin egallaydi. Motor alaliyada nutq buzilishlari sistemali xarakterda bo'lib, uning barcha tarkibiy qismlari uchun xos: fonetik-fonematik va leksik-grammatik. Motor alaliya kelib chiqishga ko'ra bir xil emas. Ayrim hollarda til vositalarini,

ya'ni fonematik, leksik va grammatik tarkibiy qismlarini tanlash operatsiyasining shakllanmaganligi kuzatilsa, ayrim hollarda moslashtirish operatsiyasining shakllanmaganligi kuzatiladi. Ayniqsa qo'l barmoqlarining mayda motorikasi qiyinlashadi.

Alaliya nutq nuqsonini bartaraf etishda logopedik korreksion ishlar quyidagicha olib boriladi: Alaliya nutq nuqsonini bartaraf etish – bu nutqni to'g'ri talaffuz qilish, ma'no va grammatikani aniq ifodalashga qaratilgan turli pedagogik, tibbiy va psixologik usullarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Nutq nuqsonlarini bartaraf etish bolalarning ijtimoiy rivojlanishi va o'qish-yozish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Bu jarayon logopediya, psixoterapiya va boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Alaliya nutq nuqsonini bartaraf etishning asosiy usullari:

Logopediya (nutq terapiyasi):

Logopedik mashqlar: Nutq muammolarini bartaraf etish uchun maxsus mashqlar va usullar mavjud. Bu mashqlar bolaning til va og'zaki mushaklarini kuchaytirishga yordam beradi. Masalan, ovoz chiqarish mashqlari, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni aniqlik bilan aytish.

Psixologik yondashuvlar:

Ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash: Alaliya bilan kurashayotgan bolalar ko'pincha o'zlarini boshqa bolalar bilan taqqoslab, ijtimoiy holatda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Psixologik yordam va motivatsiya ularga o'ziga bo'lgan ishonchni tiklashga yordam beradi.

O'z-o'zini anglash va boshqarish: Psixoterapiya va maxsus mashqlar yordamida bolaga o'z nutqidagi xatoliklarni tushunishga yordam berish mumkin. Bu jarayon bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Pedagogik yondashuvlar:

Individual yondashuv: Har bir bolaning nutq rivojlanishiga alohida yondashish kerak. Ba'zilar ko'proq vaqt va e'tibor talab qilishi mumkin, boshqalari esa tezroq rivojlanishi mumkin. O'qituvchi va logoped bola uchun moslashtirilgan darslar o'tkazishadi.

Medikomentoz terapiyasi (keng tarqalgan emas):

Agar alaliya fiziologik muammolar yoki tibbiy holatlar bilan bog'liq bo'lsa, maxsus davolash yoki dori-darmonlar tavsiya etilishi mumkin. Biroq, bu har doim ham kerak emas va faqat malakali mutaxassis tomonidan tavsiya etilishi lozim. Ish jarayonida turli metod, usullardan mujassamlashgan holda foydalaniladi. Bolaning nutqiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishning vazifa va mazmuni aniqlanadi. Olib boriladigan ishlar nutqiy faoliyat mexanizmlarini shakllantirishga qaratiladi: motiv, aloqa bog'lash maqsadi, bayonning ichki dasturi, uning leksik- grammatik vositalarini tanlash grammatik tuzilishi shakllantiriladi. Nutqiy tajribani boyitish uchun bilimlardan ongli foydalanish uquvi rivojlantiriladi, nutqiy operatsiyalarni modellashtirishni egallash uquvi orttiriladi.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytmochimanki har xil turdagi nutq nuqsonlarining barchasi bola organizmining shakllanishi va ruhiy jarayonlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi va bu ta'sir salbiy xarakterda ifodalanadi. Biz bolaga avvalam bor to'g'ri ruhiy dalda bera olishimiz kerak bo'ladi. Biz nuqsonni korreksiyalash uchun turli metodikalardan keng foydalanamiz. Bu esa bizga bolaning individual xususiyatlarini bilib olishga va nuqsoni tez va to'g'ri bartaraf etishimizga yordam beradi. Alaliya nutq nuqsonini bartaraf etish bu butunlay kompleks yondashuvni talab qiladigan jarayon. Nutqni yaxshilash uchun logopediya, pedagogika, psixologiya va tibbiyot sohalarining kombinatsiyasini talab etadi. Alaliyaning bartaraf etilishi bolalarga o'zlarini

ijtimoiy va o'qish muhitida muvaffaqiyatli namoyon qilishlariga yordam beradi, shuningdek, ular o'z hayotlarida yanada ishonchliroq va baxtliroq bo'lishadi. Shuningdek bunday bolalar bilan kompleks ish olib borish ishning samaradorligiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupova M.Y. Korreksion ishlar metodikasi ma'ruza matni. T.: 2001.
2. Ayupova M.Y. LogopediY. - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
3. Axunjanova S. A. O podgotovke detey k shkolnomu obucheniY. - T.: Ijodkor, 1995.
4. Axmedova Z., Ayupova M., Xamidova M. Logopedik o'yin. T.: 2013.298
5. Volkova G.A. Logopedicheskaya ritmika. – M.: 2003.
6. Gvozdev.A.N. Voprosi izucheniya detskoy rechi.–M.:Pedagogika,1991.
7. www.smdoctor.ru